

№1(5)
2025



ÓZBEKISTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASI
NÓKIS FILIALÍ

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI / ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА / BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍŚÍ

ILIMY-METODIKALÍQ JURNAL

**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ
BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR
MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT
MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI
Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА
Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART
Scientific-methodical journal

№ 1(5)/2025

SHÓLKEMLESTIRIWSHI:

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali

Bas redaktor: – Allanbaev Rudakiy, *professor*

Juwaplı xatker: – Kamalova Difuza, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent.*

REDKOLLEGIYA AĞZALARI:

OZODBEK NAZARBEKOV – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, professor;

AZIZBEK TURDIEV – Ózbekstan Respublikası Mektepge shekemgi hám mektep bilimlendiriw ministri máslahátshisi, filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

BEGIS TEMIRBAEV – Qaraqalpaqstan Respublikası Mádeniyat ministri, docent;

KAMOLIDDIN URINBAYEV – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektori, professor;

OMONILLA RIZAEV – kórkem ónertanıw ilimleriniń kandidati, professor;

HIKMAT RAJABOV – professor;

ORAZALI TOSHMATOV – professor;

BAXT AZIMOV – pedagogika ilimleri kandidati, docent,

MUHABBAT TOLAXOJAEVA – kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

MARFUA XAMIDOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

BOLTABOY SHODIYEV - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori;

OZODA TOSHMATOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

SAYYORA ĞAFUROVA – professor;

OYDIN ABDULLAEVA – professor;

IRODA MIRTALIPOVA – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

PARAXAT MAMUTOV – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

QURBANBAY JARIMBETOV – filologiya ilimleriniń doktori, professor;

ALIMA BERDIMURATOVA – filosofiya ilimleriniń doktori, professor;

ZIYADA BEKBERGENOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc), professor;

ALIMA PIRNIYAZOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc);

YUSUPOV QONÍSBAY – pedagogika ilimleriniń doktori (DSc), professor;

UTEBAEV TAJIBAY - pedagogika ilimleriniń doktori (DSc), professor;

SEYTKASIMOV DAULETNAZAR - pedagogika ilimleriniń doktori (DSc);

ARTÍQBAY EREJEPOV – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

JAÑABAY MARZIYAEV – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde baspadan shıǵarıladı. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.

Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanlı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertanıw ilimleri jónelisi boyınsha dissertaciya nátiyjelerin baspadan shıǵarıw ushın arnalǵan jetekshi ilimiy jurnallar qatarına kiritilgen.

Redaksiya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali Turan oypatı 29-jay.

E-mail: ozdknf@edu.uz, UZDK_Nukus@exat. Tel:551020540 Veb-sayt: <https://science.uzdknf.uz/>

ISSN-2181-4112

KÓRKEM ÓNER

QORAQALPOQ KOMPOZITORLARI ASARLARIDA MUSIQIY DRAMALAR

Allanbaev R.O.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali

Annotatsiya: San’at shunday bir ilohiy kuchki, unda insonning ichki kechinma va holatlari aks etadi. Musiqali drama san’ati sahna voqealarini qahramonlarning ichki kechinma va holatlari, munosabatlarini so‘z, musiqa, turli dramatik harakatlar, shuningdek, raqs orqali ifodalaydi. So‘z va musiqa bir-birini tóldirib, asar mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada qoraqalpoq musiqali drama janrining shakllanishi va xalqimizning ko‘ngil tubidan joy olgan musiqali dramalari talqin qilindi. Shu bilan birgalikda, qoraqalpoq milliy musiqali drama janrining rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shgan va asarlarda xalq musiqalarini kerakli joyida mahorat bilan foydalangan kompozitorlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Musiqali drama, janr, madaniyat, kompozitor, musiqa, san’at, repertuar.

Аннотация: Искусство — это такая божественная сила, что оно отражает внутренние переживания и состояния человека. Искусство музыкальной драматургии выражает события сцены посредством слова, музыки, различных драматических движений, а также танца. Слова и музыка дополняют друг друга и служат раскрытию сути произведения. В данной статье дано осмысление становления каракалпакского музыкально-драматического жанра и музыкальных драм, происходивших в сердцах нашего народа. Наряду с этим даются сведения о композиторах, которые внесли свой вклад в развитие жанра каракалпакской национальной музыкальной драмы и умело использовали в произведениях народную музыку.

Ключевые слова: Музыкальная драма, жанр, культура, композитор, музыка, искусство, репертуар.

Annotation: Art is such a divine force that it reflects the inner experiences and states of a person. The art of musical drama expresses the events of the stage through words, music, various dramatic movements, as well as dance. Words and music complement each other and serve to reveal the essence of the work. In this article, the formation of the Karakalpak musical drama genre and the musical dramas that have taken place in the hearts of our people have been interpreted. Along with this, information is given about the composers who contributed to the

development of the Karakalpak national musical drama genre and skillfully used folk music in the works.

Keywords: Musical drama, genre, culture, composer, music, art, repertoire.

Kirish: Respublikamiz madaniy hayotida musiqali drama va komediya teatrlarining faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqali drama va komediya teatrlari mamlakatimizda yashayotgan barcha millat vakillarining ma'naviy yuksalishiga barakali hissa qo'shib kelmoqda. XX asr boshlarida o'lkamizda yuzaga kelgan musiqali drama tarixiy ahamiyatga molik sharaflı yo'lni bosib o'tdi. Turli davrlarda yaratilgan o'nlab musiqali sahna asarlar teatr tarixida va bugungi kunda ham mumtoz merosimiz sifatida ardoqlanib kelinmoqda.

Asosiy qism: XX asrning ikkinchi yarmida qoraqalpoq san'ati juda katta muvaffaqiyatlarga erisha boshladi. Aynan bu davrda qoraqalpoq dramasi va musiqiy dramasi har taraflama rivojlanib, bu yo'nalishning repertuari kengaya boshladi ya'ni milliy dramaturgiyamiz rivojlandi. S.Xojaniyazov, P.Tilegenov, T.Seytjanov, T.Jumamuratovlarning pyesalari repertuardan katta o'rin egalladi. Asarlardagi mavzular asosan urishtan keyingi qayta qurish davridagi voqealarga asoslangan. Teatr sahnasida milliy dramaturglarimiz bilan birga jahon dramaturglarining klassik asarlari ham o'rin oldi. XX asrning ikkinchi yarmida qoraqalpoq musiqiy drama janri rivojlanib, "Súymegenge súykenbe", "Aygúl-Abat", "Berdaq", "Gárip ashıq" va "Rawshan" nomli pyesalar sahnaga qo'yilib xalqqa in'om etildi. Bu davrda sahnalashtirilgan pyesalar drama janrining en yuqori cho'qqisi edi. Bu pyesalarning musiqalari faqat teatr sahnasida emas, boshqa ijrochilarning repertuarlaridan ham katta o'rin egallab, xalq orasida keng tarqalishiga sabab bo'ldi. Bu asarlar orqali qoraqalpoq musiqa san'atida uvertyura, ansambl, o'yin va ko'p tovushli xorlar shakllana boshladi. Musiqali drama janrining rivojlanishida kompozitorlarning o'rni juda katta. Ular xalq musiqalarini qayta ishlab, garmoniyasini boyitib, badiiy jihatdan murakkab bo'lgan asarlarni yaratdi. Pyesalarning ma'nosini tamoshabinlarga ta'sirli yetkazib berish uchun kompozitorlar asardagi qahramonlarning obrazlariga bog'liq harxil holatlarini musiqa tilida boyitib asarlar yozgan. Bularning ichida o'sha davrda Sapar Xojaniyazovning "Súymegenge súykenbe" komediyasi xalqimizning eng sevimli asarlaridan biriga aylandi. Bu musiqiy drama rejissiyor tarafidan mahorat bilan sahnalashtirilishi va aktyorlar tarafidan yuqori darajada obrazlarning yoritilishi, asarning katta muvaffaqiyatlarga erishishiga asos bo'lib xizmat qildi. Bu asar qo'shni davlatlarda (Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'izston) ham sahnalashtirildi [2; 162].

A.Xalimov va J.Shamuratovlar tarafidan yaratilgan J.Aymurzaevning "Aygúl-Abat" musiqiy dramasi teatrning eng muvaffaqiyatli chiqqan asarlaridan

biri bo'ldi. Asarda xalqning qiyin turmush tarzi qayg'uli musiqalar bilan tasvirlanadi va xor bilan orkestrning hamrohligida bu ko'rinishlar avj olib, tomoshabinlarni qandaydir larzaga soladi. Bundan tashqari kompozitorlar orkestrdagi asboblarga musiqa partiyalarini professionallik bilan taqsimlab bera olgan, hatto bu musiqalarni eshitganda xalqning qayg'ulu hayot tarzi tinglovchining ko'z o'ngida tasvirlanib turgan. Xulosa qilib aytganda, "Aygul-Abat" pyesasi qoraqalpoq musiqa madaniyatida musiqali dramaning shakllanishida katta ahamiyat kasb etgan. Chunki bu asar asosan qoraqalpoq xalq musiqalari negizida yaratilgan va asar qoraqalpoq musiqali dramasini rivojlantirgan.

Milliy musiqali dramalarimizdan o'rin olgan durdonalarimizdan biri – dramaturg J.Aymurzaevning "Berdaq" pyesasi hisoblanadi. Bu asarga dramaturg marakani boshlash, aytishuv, so'zga chechanlik, muommoni yechish kabi so'z zargarlarining dasturlarini kiritgan. Bu dasturlar kompozitor uchun drama bilan musiqaning aloqasini kuchaytirishga imkoniyatlar yaratib bergan. Pyesaning musiqasi J.Shamuratov va A.Xalimov tarafidan yozilgan. Asarda yuqori mahorat bilan qayta ishlangan xalq musiqalari janrli shaklda shakllanib, tinglovchilarga estetik zavq beradi. Bu asarlar o'z davrida xalqni ma'naviy estetik tarafdin ilhomlantiruvchi qurol bo'lib xizmat qilgan va qoraqalpoq milliy musiqali dramasi rivojlanishining dastlabki qadamlari bo'ldi desak adashmagan bo'lamiz.

O'tkan asrning 60-70-yillarida qoraqalpoq adabiyoti bilan san'ati, shu bilan birga teatr ham shiddat bilan rivojlana boshladi. Chunki Qoraqalpog'istonning qaysi sohasini qaramaylik, hamma yerda yoshlar o'zlarining yangi ideyalari bilan kirib kela boshlagan. XX asrning ikkinchi yarmida musiqali drama janrida paydo bo'lgan asarlar mustaqillik yillariga kelib qayta sahnalashtirilib, qoraqalpoq musiqa madaniyatida o'zining rivojlanish yo'lini davom ettirib kelmoqda.

Teatr repertuari musiqali drama va komediyalarga juda boy bo'lib, unda harxil xarakter va ko'rinishlarga ega asarlar o'rin olgan va bugungi kungacha tomoshabinlarning olqishiga sazovor bo'lib kelmoqda. Ular jumlasida Sh.Paxratdinov va A.O'teniyazovalar tarafidan 2009-yil yaratilgan "Qizini ar namisini" musiqali dramasi, Q.Zaretidinov va O.Abdiraxmanovning 2005-2008-yillari sahnaga qo'yilgan "Tirsekler" musiqali dramasi, 2008-2013-yillarda Q.Zaretidinov va K.Raxmanov tarafidan yaratilgan "Yar diydari" musiqali dramasi, 2010-yili sahnalashtirilgan "Xujdan" musiqali dramasi, 1980-yili A.Muxamedov, Q.Bayseytov, Q.Shanqitbaevlar tarafidan yaratilgan va 2010-yili qayta ishlangan "Ush boydaq" musiqali komediyasi, 2006-yili S.Palvanov va P.Tilegenovlar muallifligida yaralgan "Koleńke" musiqali dramasi, A.To'remuratova va K.Raxmanov muallifligida 2005-yili sahnalashtirilgan "Olim jazasi" musiqali dramasi va M.Shamxalov, Z.Bagirovlar tarafidan 2004-yili yaratilgan "Qayin ene" musiqali dramasi alohida e'tiborga loyiq.

Yuqorida aytib o'tilgan asarlarda kompozitorlar xalq musiqalarini kerakli joyida mahorat bilan foydalanishgan. Quyida qoraqalpoq milliy musiqali drama janrining rivojlanishida o'z hissasini qo'shgan taniqli ba'zi kompozitorlar haqida ma'lumot berishni joiz dep topdik.

V.G.Shafrannikov. V.G.Shafrannikov 1908-yili Toshkent shahrida tug'iladi. U yoshligidan musiqa sohasiga qiziqadi. Rus xalq musiqalarini butun borlig'i bilan tinglaydi. U 1941-yili Moskva konservatoriyasining kompozitorlik fakultetini bitirib, To'rtkulga kelib ish faoliyatini davom ettiradi. Uning so'ngi yillari (1973-yilgacha) Qoraqalpog'iston musiqa madaniyatini rivojlantirish bilan ijodiy tarafdin keskin bog'liq bo'ldi.

V.G.Shafrannikov qoraqalpoq xalqining qahramonlik va lirik dostonlari va hozirgi hayot tematikasidan olingan "Leytenant Elmuratov", "Alpamis", "Qırıq qız", "Tazag'ul", "Aral qızı" kabi pyesalariga J.Shamuratov bilan birga musiqa bastalagan. Ayniqsa, uning "Alpamis" va "Qırıq qız" dostonlariga yozgan musiqalari xalq milliy musiqalariga asoslanishi va sahna xarakteri bilan juda yaqin bog'langanligi uchun Toshkent va Moskva kompozitorlari tarafida yuqori baholandi.

1946-yili V.G.Shafrannikovga xalqimizning musiqa san'ati va milliy dostonlarni keng targ'ib qilgani uchun "Qoraqalpoq xalq artisti" unvoni berildi. Uning ijodida "Sıganaq" qo'shig'i, "Elim", "Qırıq qız" pyesasidan "Qızlar xori" (I.Yusupov muallifligida) va boshqa qo'shiqlari ham bor. V.G.Shafrannikov 1975-yili dunyodan o'tgan [3; 16].

Olimjon Xalimov. Respublikamizda Olimjon Xalimovning ismi taniqli kompozitor, fidoyi ustoz, Qoraqalpog'istonda professional musiqa san'atining asoschilaridan biri sifatida hurmat bilan tilga olinadi. Olimjon Xalimov 1912-yili Buxoroda Domulla Xalim Ibadov oilasida tug'ilgan. Keng diapazonli tovushga ega otasi Buxoro amrining saroy qo'shiqchilari orasida eng zo'z o'broga ega bo'lib, o'zining qo'shiqchilik maktabini ochgan va ko'plab chogirdlar tayyorlagan. Shu sababli xalq uni hurmat qilib "Domulla Xalim" deb atagan. Olimjon Xalimovning ham musiqa sohasiga kirib kelishida bevosida otasining hissasi kattadir.

Olimjon Xalimov teatr sahnasidagi 15 dan ziyot spektakllarga musiqa yozadi. "Súymegenge súykenbe" (1945-yil), "Ayg'ul-Abat" (1946-yil J.Shamuratov bilan birga), "Aral qızı" (1949-yil), "Berdaq" (1951-yil), "Jas júrekler" (1953-yil), "Gárip ashıq" (1955-yil), "Jaylawda toy" (1959-yil A.Xayratdinov bilan birga) va boshqa musiqali drama va komediyalarning teatr repertuarida uzoq saqlanib tomoshabinlarning suyuqli asariga aylanishida kompozitorning katta hissasi bor.

Respublikamizda musiqa madaniyatini rivojlantirishdagi fidoyi mehnatlari uchun Olimjon Xalimov 1949-yili "Qoraqalpog'iston Respublikasiga mehnati singan madaniyat fidoyisi", 1957-yili "O'zbekiston xalq artisti" unvonlari bilan

taqdirlandi. U birinchilar qatorida Berdaq nomidagi davlat mukofotining laureati bo'ldi [3; 18-19].

Sharapatdin Paxratdinov. Qoraqalpog'istonda musiqa san'atining rivojlanishida Qoraqalpog'istonga xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, skripka ijrochisi, dotsent va bastakor Sharapatdin Paxratdinovning o'rni beqiyos. Sharapatdin Paxratdinov 1950-yilning 22-fevral kuni Qoraqalpog'iston Respublikasi, Chimboy tumanida tavallud topgan.

Sharapatdin Paxratdinov butkul ijodkorlik yo'lida yuzdan ziyot qo'shiqlar va musiqalar yaratdi. Masalan, "Kiyik óttime", "Bir adamdi bir adam", "Nurlí mákánim", "Sen kúlip kettiń", "Báhár seni saǵınıp keldi", "Assalawma aleykum", "Májnúntal", "Tashkent aqshamı", "Bir gúl kórindi de ketti", "Yar kútiw", "Urıs veteranlarına", "Jipek jolı", "Sen jaqsı qızsań", "Ózbekstan Watanım meniń", "Türkistan tariyxıy ata mákánim", "Nawrız", "Watan", "Maǵan ber", "Muqaddes Watan", "Baxıtlı balalıq", "Tınıshlıq", fortepiano va orkestr uchun "Vals", skripka va simfonik orkestr uchun "Fantaziya", "Nama", "Qosıq hám oyn", simfonik orkestr uchun "Shılıpıq ırǵaqları" kabi milliy kaloritga boy musiqalari bor [4; 16-17]. Sharapatdin Paxratdinov musiqali dramalar uchun ham musiqalar yaratgan. Ular jumlasidan, Q.Matmuartovning "Sharyar" spektakliga, Q.Raxmanovning "Ráwshanım qaydasań?" spektakli uchun musiqalar yaratgan [3; 244].

U qilgan mehnatlari uchun 1989-yili Yoshlar ittifoqi mukofoti sovrindori, 1996-yili Qoraqalpog'istonga xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, 2001-yili Mustaqilligimizning 10 yilligiga bag'ishlangan "Estalik nishoni" bilan taqdirlangan [4; 17-18].

Qural Berdaqov. Musiqa san'atining taniqli arbobi, pedagog, musiqa yaratuvchi Qural Berdaqov 1955-yili Xojayli shahrida dunyoga kelgan. Qural Berdaqov Surxondaryo viloyatining Termiz shahridagi musiqa bilim yurtining xor dirijyorligi bo'limini 1976-yili tamomlaydi. U M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasiga o'qishga qabul qilinib, estrada artisti, xor dirijyorligi, aranjirovka mutaxassisligi bo'yicha 1991-yili o'qishni tamomlaydi. U o'zining ijod yo'li davomida birqancha musiqalar yaratadi.

Qural Berdaqov musiqa tarbiyachisi sifatida maktab o'quvchilari uchun "Ózbekstan – Watanım meniń", "Ata-ana qádirdan", "Shaǵallar", "Qarlıǵash", "Nawrız keldi" kabi qo'shiqlarga musiqa yozish bilan bir qatorda sahna asarlari uchun ham musiqalar yaratgan. Ulardan "Ínjiqtıń muxabbatı", qo'g'irchoq teatri uchun "Sadıq doslar", "Batır qoyan" spektakllariga musiqalar yozdi. Qural Berdaqov 2022-yili dunyodan o'tgan [3; 288].

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, qoraqalpoq musiqali dramalari va ularni boyitadigan ijodkor mualliflar va kompozitorlar, xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish, estetik didini yanada oshirish

yoʻlida ijobiy ijod qilib, qoraqalpoq musiqali dramasini dunyo miqyosida yuksaklarga kótarishadi deb oʻylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adambaeva T. Qaraqalpaq muzikasiniń tariyxınan. “Qaraqalpaqstan” nashri 1985-yil.
2. Nadirova A. Qaraqalpaq muzıka tariyxı. – T.: “Sano-standart” nashri, darslik, 2018.
3. Muxammeddinov N. “Qaraqalpaqstan kompozitorları, muzıka dáretiwshilari hám izertlewshilerdiń antologiyası” “Qaraqalpaqstan” nashri 2024-yil.
4. Kamalova G.M., Paxratdinov J.A. Paxratdinovlar shejiresi. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashri, 2024.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Ходжаметова Г.И. КАРАКАЛПАКСКАЯ ТРАДИЦИОННАЯ МУЗЫКА КАК ПЕРВООСНОВА СОЧИНЕНИЙ ФОРТЕПИАННОЙ МУЗЫКИ	3
2	Charshemov J. P.XINDEMITNING “LUDUS TONALIS” TSIKLINING GARMANIK TAXLILI	10
3	Мухаммедниязов К.Т. ИЗУЧЕНИИ ПРОБЛЕМЫ ВЗАИМОСВЯЗИ МУЗЫКИ И СЛОВА НА ПРИМЕРЕ «ПОЭТИКИ» АРИСТОТЕЛЯ	16
4	Abatbaeva R.O. XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA QORAQALPOQ MUSIQASI	22
5	Саидхонов А.С. ДВЕНАДЦАТЬ ГРАНИ СОВЕРШЕНСТВА (На примере трансцендентные этюды Ференца Листа)	29
6	Жумабаев А.Е., Муратбаева А.А. МУЗЫКАЛЬНАЯ ФОЛЬКЛОРИСТИКА	42
7	Saburova U.M. LYUDVIG BETHOVEN IJODIDA VARIATION SHAKL	48

KÓRKEM ÓNER

8	Allanbaev R.O. QORAQALPOQ KOMPOZITORLARI ASARLARIDA MUSIQIY DRAMALAR	53
9	Abdullaev F., Muratbaev A. QARAQALPAQSTANDA DEMLI ORKESTRINIŇ DÚZILIWI HÁM ONIŇ RAWAJLANIŇW BASQIŠHLARI	59
10	Qurbanazarov P. DAMLI CHOLG‘ULAR VA ULARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	65
11	Shermatov K.E. BUYUK ALLOMALAR ABU ALI IBN SINO VA ABU NASR FAROBIYLARNING MUSIQIY MEROSI	73
12	Abdullaeva U., Razatdinova A. KOMPOZITOR KEŇESBAY ABDULLAEVTIŇ QARAQALPAQ XALIŇ NAMALARINIŇ RAWAJLANIŇWINA QOSQAN ÚLESİ	80
13	Александрова О.А. ПАМЯТИ ОПЕРНОГО ПЕВЦА КУРКМАСА МУХИТДИНОВА	86
14	Allaniyazov B. SKRIPKANING TARIXIY RIVOJLANISH JARAYONI	91
15	Erejepov A.A. QARAQALPAQ BAQSISHILIQ MEKTEPLERINIŇ ATQARIWSHILIQ KÓRKEM ÓNERI ÓZGESHELIKLERI HAQQINDA	98

16	Kamalova G.M. HIKMAT RAJABOVTIŇ DÓRETIWSHILIGINE TÁN ÓZGESHELIKLERI	104
17	Dosimbetov B.X. CHOLG‘U IJROCHISINI KONSERT VA SAHNA NAMOIYISHIGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	113
18	Zuxurov M.M. DIRIJYORLIQTA QOL HÁREKETLERINIŇ DURIS ATQARILIWI HÁM OLARDI RAWAJLANDIRIW	120
19	Embergenova G.A., Yo‘ldoshev L.E. XOR ASARLARINI TAHLIL QILISH OMILLARI	130
20	Paxratdinova L.Sh. SKRIPKA SAZ ÁSBABÍ TARIYXÍ	136
21	Karimova I.I. SKRIPKA SAZ ÁSBABÍNA SHÍĠARMA JAZĠAN DÓRETIWSHILER HÁM PROFESSIONAL ATQARÍWSHÍLAR ÁHMIYETI	145
22	Rejepov Sh.B. ĠAYÍP DEMESINOVTIŇ FORTEPIANO DÓRETIWSHILIGI (“Prelyudiya”lari misalında)	153
23	Mamutov P.A. TEATRDÍŇ TARIYXÍY QÁLIPLESIW HÁM DRAMATURGIYANIŇ RAWAJLANIW BASQÍSHLARÍ	159

MUZÍKA PEDAGOGIKASÍ

24	Umarova V.A. MUSIQA-IJROCHILARNI TANLOVLARGA TAYYORLASHDA USTOZ VA OILANING ROLI	164
25	Tnibaev P.K. DAMLI CHOLG‘ULARNI TALABALARGA O‘RGATISH: PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA METODLAR	169
26	Элмуродова Г.А. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНИКИ ПО ПРЕДМЕТУ ФОРТЕПИАНО (НА ПРИМЕРЕ ЭТЮДОВ К. ЧЕРНИ)	173
27	Iseev R. FORTEPIANO ATQARÍWSHÍLÍĠÍŇDA POLIFONIYA JANRINIŇ AHMIYETI. POLIFONIYALÍQ SHÍĠARMALAR USTINDE JUMÍS ALÍP BARÍW	180

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

28	Jabbarov I.A., Bazarbaeva N.I. MOBILE APPLICATIONS AS A CONTEMPORARY INSTRUMENT FOR ENHANCING ENGLISH LANGUAGE LEARNING	187
29	Marziyaev J.K. JOQARÍ OQÍW ORÍNLARÍŇDA JURNALIST QÁNIGELERDI TAYARLAW	194
30	Kalimbetova S.A. O‘ZBEK JADID DRAMATURGIYASI VA TEATRI (“Padarkush” va “To‘y” dramalari misolida)	201

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikalıq jurnal